

O'QUVCHILARDA ZAMONAVIY TA'LIM YA'NI INTERFAOL USULLAR ASOSIDA ERKIN FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Matsafayeva shohista

Xorazm viloyati,
Qo'shko'pir tumani
32-umumta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

FORMATION OF FREE THINKING IN STUDENTS ON THE BASIS OF MODERN EDUCATION

Matsafayeva shohista

Khorezm region,
Koshkopir district
32nd Secondary School
history teacher

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim ya'ni interfaol usullar orqali o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish masalasi yoitib berilgan. Xususan tarix fanida loyiha metodidan foydalanish ta'lim oluvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, bilimlarni mustaqil egallash va ushbu bilimlarni kelgusi hayotga tadbiq etishga, mustaqil fikrlash, ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalitso'zlar:

Innovatsiya, interfaolusullar, insonparvarlashtirish, intensiv rivojlantirish, tushuncha, metod, shaxs rivoji.

Annotation:

This article addresses the issue of modern education, ie the formation of free thinking in students through interactive methods. serves to shape the features of creativity.

Keywords:

Innovation, interactivity, humanization, intensification, understanding, method, personality development.

Hozirgi davrda ta'lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o'qitish usullaridan voz kechib, zamon talablariga javob beradigan yangi ko'rinishdagi metodlar izlashni va ularni har bir fan doirasida qo'llashni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azm-u shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish - biz uchun eng muhim masaladir",- deya alohida e'tibor qaratdilar. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli ta'limni amalga oshirishni va sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yadi.

Innovatsion pedagogik jarayonlar ta'lim xizmatlari bozorida nafaqat u yoki bu ta'lim muassasasining raqobatbardosh bo'lishiga asos yaratadi, balki o'qituvchi va o'quvchi shaxsini intensiv rivojlantirish, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati va muloqotini demokratlashtirish,

ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, o'quvchini faol ta'lim olish hamda o'zini shakllantirishga yo'naltirish, ta'lim texnologiyalari, metod va vositalari hamda ta'limning moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash kabi vazifalarni bajaradi, pedagoglarning kasbiy mahorati, ularning ijodkorligi, izlanuvchanligining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlaydi, o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kun talabi ta'lim jarayonida asosiy yo'nalishdagi ta'lim mazmunini yanada mukammallashtirishni talab etadi. Ta'lim yo'nalishlari maxsus aniq o'quv predmetlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga qaramay, ularning predmet to'g'risidagi chuqur tasavvurlaridan maqsadga muvofiq chetga chiqqan holda fanlararo ajratilgan yo'nalish bo'yicha bilimlarni boshqa o'quv predmetlariga ham qo'llay olish imkoniyatlarni yuzaga keltirish lozim. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning mazmunini yanada mukammallashtirishda o'quv axborotni integratsiya tamoyili asosida o'qitishni joriy etilishiga alohida e'tibor ajratish lozim, bunda albatta talabalarga kasbiy tayyorgarlikka xos butun bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlanishi e'tiborga olinadi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya berish, har sohada yetuk mutaxassis qilib tayyorlash shu kunning dolzarb masalasidir. Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilayotgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal sur'atlar bilan egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini ham qo'yimoqda. Ta'limning barcha bosqichlari oquvchilarning tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan, yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asosini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim berish – suhbatli ta'lim berish, bunda ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchi va kompyuterning o'zaro harakati amalga oshiriladi. Interfaol metoddan foydalanish jarayonida ta'lim beruvchi: Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosining rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Kompyuterlarning o'quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko'rilmagan darajada o'qitishning yangi turlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ikkita asosiy masalani yechish bilan bog'liq: o'quvchilarni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o'rgatish va o'quvchilarning o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va takomillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagoglar oldiga quyidagi talablarni qo'yadi:

- zamonaviy pedagog kompyuterdan foydalanishni bilish;
- kompyuter yordamida o'qitish vositalaridan foydalana olish va uni o'quv jarayoniga tatbiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z bilimni kompyuterli o'qitish bo'yicha doimo takomillashtirib borish.

O'yin-faoliyatning bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinlarning maqsadi, vazifasi va qo'llanilishi har xil va rang-barangdir. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. D.N.Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki psixik (ruhiy) xulqi shaklidir. L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. A.N.Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi. Ma'lumki, uzluksiz

ta'lim tizimi, eng avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy–texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv–tarbiya jarayoniga kirib kelishi oqibatida har bir inson uchun o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida ayniqsa tarix fanida innovatsion texnologiyalaridan biri – loyiha metodidan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limda o'quv loyihalarini amalga oshirish hozirgi paytda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod Yevropa va Amerika ta'lim tizimida keng tadbiiq qilingan bo'lib, u yuqori darajadagi samaradorligi bilan ajralib turadi. Loyiha metodi asosida o'qitish ta'lim oluvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda, bilimlarni mustaqil egallash hamda ushbu bilimlarni kelgusi hayotda tadbiiq etishga, mustaqil fikrlash, ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Loyiha deganda, o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida o'quvchi tomonidan bajariladigan intellektual-amaliy tushungi ijodiy topshiriq-vazifa tushuniladi. Loyiha metodi – o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga yo'naltirilgan metod bo'lib, unda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish usullari va faoliyatlarini ma'lum bir to'plami va bu ko'zda tutilayotgan natijalarni faoliyatning aniq natijasi ko'rinishida taqdim etadilar. Loyiha metodi bilim va malakalarni amalga qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmual o'qitish usuli sifatida tadbiiq etadi. Loyiha ilmiy metodik jihatdan anglangan, umumlashtirilgan, turkumlangan va uni samarali qo'llash doiralari belgilangan bo'lishi kerak. O'quv vaziyatlarini loyihalashtirishda muammolilik, o'quvchilarning imkoniyatlarini maksimal tarzda ta'minlash, o'zaro hamjihatlikda o'qitish, mustaqil o'qish kabi tamoyillarga tayanishi lozim. Loyiha – bu ma'lum bir natijani qo'lga kiritishga yo'naltirilgan yaxlit amaliy faoliyatdir. Uni amalga oshirish bosqichma-bosqich sodir bo'ladi: harakat g'oyadan natijaga qarab boradi, loyihaning tugallanishi esa, ya'ni, ish yakunlarini muhokama etish, uni boshqa kishilarga namoyish etish imkoniyati o'quvchiga qilingan sa'yi-harakatlarni anglab yetish va oqlash tuyg'usini beradi. Loyiha jamoaviy sa'yi-harakatlar natijasi bo'lib, faoliyatning hal qiluvchi bosqichida hamjihat bo'lib ishlash fikrini, axborot ta'minotining to'liqligini, kengligini, har bir kishining ijodiy yondoshish hissasini tahlil qilishni taqozo etadi. Loyiha metodidan avval o'rganilgan materialni mustahkamlashda va uni o'zlashtirish davomida ham foydalanish mumkin.

O'quvchilar tarixiy manbalardagi ma'lumotlar, dalillarni ixtiyoriy, mustaqil o'rganish, izlanish orqali o'tmish hayotga kirib boradilar va o'tmish hayotni o'z tasavvurlarida qayta tiklab, beixtiyor o'tmishni hozirgi zamon bilan taqqoslaydilar. Manba va dalillarni loyiha asosida ko'ngilli va mustaqil o'rganayotgan o'quvchida yangi tasavvurlar paydo bo'ladi. Bu tasavvurlar asosida u yangi tushuncha hosil qiladi. Yangi tushunchalar o'z navbatida o'rganilgan ma'lum bir manbalar, dalillar va ma'lumotni umumlashtiriladi, shu asosda xulosalar chiqariladi. Demak, o'quvchi an'anaviy dars mashg'ulotidan farq qilgan holda loyiha metodi asosida yangi bilim oladi. Loyihalash ishlari oldindan tayyorgarlik ko'rishni talab etadi, shuning uchun vazifa oldindan aniqlanadi. O'quvchilar ishlab chiqilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda o'zaro taqsimlashadi. Tarix o'qitish jarayonida loyihalash faoliyatini amalga oshirishda o'quvchilarning yoshga doir xususiyatlarni hisobga olgan holda loyiha metodidan foydalanish lozim. Xususan, 5-sinf tarix darslarida o'quvchilar bilan birgalikda "Eng qadimgi odamlar" mavzusidagi amaliy loyiha ishlab chiqilsa, ishning maqsadi qadimgi odamning yaratgan kashfiyotlarini og'zaki yoki illustratsiyalar vositasida o'rganishdan iborat bo'ladi. 6-sinf tarix darslarida o'qib chiqilgan manbalar dialog, rasm solish grafikasi asosida surat yaratish, sahnalashtirish bo'lsa, 7-sinf tarix darslarida tarixiy shaxslarga (podshohlar, sarkardalar, olimlar va boshqalar) xatlar yozish, qahramon nomidan kundaliklar yozish, mustaqil asarlar yaratish mumkin.

Umumta'lim maktablari 8-9-sinf tarix darslarida esa, tarixiy voqealarni davom ettirish (qo'zg'olon, isyon, inqilob), shaxsiy taqlidiy tarixiy asarlar va prezintatsiyali loyihalar yaratiladi. Umumta'lim maktablarining yuqori sinflari tarix darslarida o'quvchilar izlanishlar natijasida amalga oshirilgan ishlar, annotatsiyali axborot resurslarini sharhlash, matnli materiallar, shaxsiy asarlar yaratish, tok-shou ko'rinishidagi ko'rsatuvlar, teatr tomoshalari orqali taqdimot

o'tkazishadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchi shaxsiga mos metodlarni qo'llay olmasa, o'quvchi shaxsini o'zgartirish uchun sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi

Ayni paytda o'qituvchi oldida yanada mas'uliyatli va mashaqqatli vazifa – o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turibdi. Hozirgi paytda milliy pedagogikaning asosiy diqqati tarbiyalanuvchi shaxs ma'naviyatini kamol toptirishga, uning o'ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, ijodkor, tashabbuskor, mas'uliyatni zimmasiga olishdan cho'chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratilgan.

Insonning tuyg'ular olami, hissiyotlar dunyosi erkin bo'lmas ekan, o'qituvchi yoki o'zga kishining tazyiqlaridan, zo'ravonliklaridan hayiqib turar ekan, u hech qachon mustaqil fikr aytolmaydi.

Hissiyotlariga daxl qilinmagan odamdan erkin fikrlay oladi, o'z fikrini asoslay biladi, uni himoya qila oladi.

Bu holatni ta'lim-tarbiyada bevosita aloqador muassasalar, shaxslar hisobga olib, tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartira boshladilar va ta'lim jarayonining pirovard maqsadi – erkin fikrlash va ma'naviyat ekanini tushunib yetdilar. Eng muhimi, mustaqil fikrlaydigan o'quvchi shunday sifatga ega bo'lmagan sinfdoshidan farqli o'laroq barcha narsani bilishga qiziqdi, ta'lim jarayonidan zavqlandi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi erkin va mustaqil fikrlashning usul va yo'llarini egallaganda o'quv materialini tez idrok etadi, puxta o'zlashtiradi. Dars mashg'uloti bilan qanoatlanmay qoladi. Sinfdoshining fikrlashiga xalal beruvchi nojo'ya xatti-harakatlaridan ranjiydi.

Ayni paytda fikrlashga o'rganmagan o'quvchi fikrlaydigan sinfdoshi oldida ojizligidan iymnadi, iztirob chekadi, turli salohiyatdagi o'quvchilardan tashkil topgan guruhda ishlashdan esa o'qituvchi tez toliqadi.

Bunday holatlar esa sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, qobiliyatiga qarab guruhlashga taqozo qiladi.

O'quvchilar ishining yuqori samaradorligini asosiy sharti, tashabbuskorlik va faolligini vujudga keltirish ular faoliyatlarini vujudga keltirish ular faoliyatlarini baholashdan iboratdir.

Boshqa tomondan, bilim darajasi, harakat qila bilishlik va o'quvchilar sifati baho bilan ifodalansa, pedagogik mehnat sifatini ifodalaydi, bu o'qituvchi faoliyati natijasi, uni vazifani qo'ya bilishligi, manba va metodlar xazinasini bilishi, o'quv jarayonini ongli tashkil eta bilishdir.

Darslardagi mustaqil fikrlashga chorlovchi topshiriqlarning aksariyati o'rta yechimni ko'zlaydi. Shuni hisobga olib umumta'lim maktablarda o'qituvchilar interfaol usullarni qo'llab kelib, yaxshi natijalarga erishib kelmoqdalar. Interfaol usullari ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan va ta'lim tizimidagi o'zaro faol usullar (metod)dan tarkib topadi

Xulosa qilib aytganda, o'qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda obyektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi. O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan hayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'la

bermasligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'z MU. 2003. - 66 b.
2. Saidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. –T.: XTV RTM, 1999. -55 b.
3. Haydarova O.Q. Oliy pedagogik ta'limga texnologik yondashuv asoslari. – 1. “Malakali pedagog kadrlar tayorlash hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”// Xalq so'zi. 2012. 29-may. № 140
4. xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
5. L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva “Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish” Toshkent 2012.
6. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari. – “Xalq ta'limi”, 1997-yil 4-son.